

ALEKSANDR FAYNBERGNING "ONA" SHE'RIGA IJTIMOIY-BADIIY YONDASHUV

Ochilova Xurshida Norsaidovna

*O'zbekiston davlat jahon tillari Universiteti xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili
fakulteti 2-bosqich talabasi
Xurshidaochilova317@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Aleksandr Faynbergning "Ona" she'rini tahlil qilamiz. Bu she'r orqali biz shoirni nafaqat shoir, yozuvchi yoki tarjimon, balki haqiqiy farzand, chin inson timsolida ko'ra olamiz. Shoirning har bir she'rlarida bo'lgani kabi mazkur she'rida ham chuqur ma'no va yorqin hislar, nozik kechinmalar uyg'un tarzda badiiy til orqali ifoda etilgan.

Kalit so'zlar: Noyabr, "Ona" so'zi, ko'klam, qabriston, tug'ilgan kun.

Kirish. Ona... Bu so'z har bir insonning qalbida o'zgacha jaranglaydigan so'z. Chinakam mehr, sevgi, ishonch va mehribon qalbning ramzi bu so'z. E'tibor bergan bo'lsangiz, har bir shoirning ijodida ona haqida she'r mavjud. Hatto onaga bag'ishlab yozilgan kitoblar ham. Shuningdek, shoir Aleksandr Faynberg ijodida ham bunday she'rlar mavjud. Bizga ma'lumki, Aleksandr Faynberg nozik kechinmalar, ichki his-tuyg'ularni jonli va hayotiy tasvirlash qobiliyatiga ega. Balki shuning uchun ham uning mazkur she'rini o'qiganda ko'zimizga yosh keladi.

"Ona" she'riga tavsif. Ko'klam o'tdi — qabristonga kelmadim,
Bo'sag'ada ko'zim tushdi nogohon
Ko'kdan tushayotgan qormas, bilmadim,
Onamning ro'moli edi shodumon.

She'r ilk satridan insonni fikrlashga chorlaydi. Shoir shunday qobiliyatga egaki, u asosiy fikrni to'g'ridan to'g'ri aytib ketmaydi, balki she'rning mazmuni orqali fikrlab topishga undaydi. E'tibor qiling, u onasining vafot qilganini aytmayapti, uning o'rniga "qabristonga kelmadim" deyapti. O'quvchi shundan anglab oladiki, demak, onasi hayot emas, afsuski. Ikkinchidan, u aynan hozir bahor fasli emasligini ham aytmagan. Ammo buni ikki jumla orqali ifodalab ketgan: "ko'klam o'tdi", "ko'kdan tushayotgan qor" ni onasining ro'moliga o'xshatishi.

Yoxud ko'zlarimga ko'rindimi u,
Hovlimda noyabr. Sezdim bu damni

Tug'ilgan kun. Tug'ilgan kun edi bu –
Noyabr tavallud oyi onamning.

Demak hozir kuz va marhum onasining tug'ilgan kuni. Ayni shu qisqa she'r orqali ham biz Aleksandr Faynbergning naqadar ulkan iste'dod egasi bo'lganini bilishimiz mumkin.

Introduction. Mother... This word is a word that resonates in every person's heart in a special way. This word is a symbol of true affection, love, trust and a kind heart. If you pay attention, every poet has a poem about his mother in his work. Even books dedicated to his mother. There are also such poems in the work of the poet Alexander Feinberg. We know that Alexander Feinberg has the ability to vividly and vividly describe delicate experiences and inner feelings. Perhaps that is why tears come to our eyes when we read this poem of his.

Description of the poem "Mother". Spring passed - I did not come to the cemetery,

Suddenly I saw on the threshold

Snow fell from the sky, I did not know,

It was my mother's scarf, maybe.

The poem invites a person to think from the first line. The poet has such a talent that he does not state the main idea directly, but encourages thinking through the content of the poem. Note that he does not say that his mother died, but rather says, "I did not come to the cemetery." The reader understands, unfortunately, that his mother is not life. Secondly, he did not say that it is not spring now. But he expressed this in two sentences: "my blue sky passed", comparing "snow falling from the sky" with his mother's scarf.

Or did it appear to my eyes,
In my yard — November. I felt this moment —
Birthday. It was a birthday —
November is my mother's birth month.

So now it's autumn and the birthday of her late mother. Through this short poem, we can also learn what a great talent Alexander Feinberg was.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.http://ziyouz.com/images/poets/aleksandr_faynberg.jpg
- 2.<http://lex.uz/ru/docs/2374740>
- 3.<https://arboblar.uz/ru/people/fajnberg-aleksandr-arkadevich>
- 4.<http://kremlin.ru/acts/bank/28431>

